

KONSTITUTSIYA VA YOSHLAR

Muxsinjon Jamoliddinovich Sobirov

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, Konstitutsiyaning yoshlar hayotidagi o'рни va qanchalik darajada kerakli ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Farmoyish, yosh tadbirkor, ijod maktabi, biznes loyihalar, asosiy hujjat, kadrlarni tayyorlash.

ABSTRACT

This article discusses the role of the Constitution in the lives of young people and how important it is.

Keywords: Order, young entrepreneur, school of creativity, business projects, basic document, training.

"Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi".

*(Òzbekiston Respublikasining
Konstitutsiyasi, 41-moddasi)*

KIRISH

Barcha tengdoshlarim qatori mening hayotimda ham Konstitutsiyaning òrni katta. Bilim olish sport bilan shug'ullanish, kasb-hunar òrganish, ishlash, dam olish va davolanish, chet ellerga chiqish imkoniyatiga egaman. Mustaqil Òzbekiston farzandi sifatida orzularimga yetishish yòlidagi barcha eshiklar men uchun ochiq ekanligini bilaman va bundan gururlanaman. Maqsadim Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, barkamol avlodning biri bòlib yetishish, el-yurt ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilish.

Òz oldiga ulkan maqsadlar qòygan va ertangi kuniga ishonchi mustahkam yoshlar – yurtimiz kelajagi. Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar,

navqiron avlod kamoloti yòlidagi ġamxòrliklar Bosh qomusimizda belgilangan huquq va kafolatlarning amaldagi ifodasidir.

Xalqimizning xohish irodasi bilan 29 yil muqaddam qabul qilingan Asosiy qomusimiz barcha sohalar qatori ta'lim tizimini ham sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga kòtarishda muhim huquqiy asos bòlib xizmat qilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning 2001-yil 4-yanvardagi "Òzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini òrganishni tashkil etish tòġrisida"gi Farmoyishiga asosan aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, òz huquqidan foydalanish kònikmasini mustahkamlash borasida keng kòlamli ishlar amalga oshirilib kelinyapti.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Òzbekiston Respublikasining "Ta'lim tòġrisida"gi Qonuni va Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi asosida barcha ta'lim maskanlari zamonaviy tarzda qayta barpo etilib, jahon talablari darajasida jihozlandi. Yoshlarimizning intellektual salohiyatini yuksaltirish, bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan keng kòlamli ishlar òzining yuksak samaralarini bermoqda. Mamlakatimizda yoshlarning zamonaviy ta'lim tarbiya olishi, keyinchalik òzi tanlagan kasb bòyicha ishini davom ettirishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Biz yoshlarning haq-huquq va erkinliklari kafolatlab qòyilgan Konstitutsiyamizni òqish uning har bir moddasini òrganish, mazmun-mohiyatini tushunish hayotimizda juda muhim òrin tutishini yaxshi bilamiz.

Konstitutsiyamizda yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, oila qurish, yashash joyiga ega bo'lish hamda o'z iqtidor va salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratilishi huquqiy ifodasini topgan. Hozirgi vaqtda yurtimizda aholining oltmish foizidan ortig'ini tashkil etayotgan navqiron avlod uchun davlat tomonidan keng qamrovli tadbirlar ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Yosh avlodning sog'lom bo'lib o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan **5 ta muhim tashabbusni** joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Yigit-qizlarimizning biznes loyihalari uchun "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi doirasida 719 mlrd. so'mlik 4 633 ta biznes loyiha amalga oshirilgan. Hududlarda 125 ta "Yoshlar mehnat guzari", 19 ta "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazi, mamlakatimiz ijtimoiy

hayotida faol qatnashib, alohida namuna ko'rsatayotgan yosh oilalarga 1 731 ta "Yoshlar uylari" qurilib, foydalanishga topshirildi.

MATERIAL VA METODLAR

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, "Temurbeklar maktabi", "Prezident maktablari", "Ijod maktablari" deb nom olgan mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, maktab ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim qayta joriy etildi. Viloyatlarda yangi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda. Oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi. Sirtqi va kechki oliy ta'lim shakllari tiklandi. Keyingi uch yil ichida 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari filiallari ochildi. Bu dargohlarda ta'lim-tarbiya olgan yoshlar mamlakatimizning kuch-qudrati, dunyodagi mavqeini oshirishga xizmat qilishiga ishonamiz. Shuningdek, 2020 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni yangidan qabul qilindi. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda. Konstitutsiyamiz yoshlar huquqlari ta'minlanishining asosiy kafolati bo'lmoqda.

NATIJALAR

Ma'lum bir davlat hududida yashab turgan inson uchun, qaysi davlatga mansubligi muhim ahamiyatga ega. Har bir insonning huquqiy maqomi uning qaerda yashayotganligi, qaysi davlat fuqarosi ekanligi kabi holatlarga bog'liq holda shakllanadi. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanib, unda "inson" va "fuqaro" maqomi alohida ta'riflanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasining huquq va

erkinliklarga bag‘ishlangan normalari, agarda inson huquqlarini mustahkamlayotgan bo‘lsa, odatda «har kim», «hech kim», «har bir shaxs» kabi iboralardan foydalanilgan. Agar O‘zbekiston fuqarosi huquqlari va majburiyatlari mustahkamlanayotgan bo‘lsa, “O‘zbekiston fuqarolari” degan atamadan foydalanilgan. O‘zbekiston Konstitutsiyasi insoniyatning uzoq davom etgan erkinlik va tenglik uchun kurashi jarayonida shakllangan umuminsoniy siyosiy- huquqiy qadriyatlarga bo‘lgan e‘tiqodi va sodiqligini namoyish etib, inson va fuqaro huquq va erkinliklarini tizimli ravishda mustahkamlaydi. Shaxsiy huquq va erkinliklarning aksariyati insoniyat paydo bo‘lgandan beri amalda bo‘lib kelayotgan tabiiy huquqlardir. Shaxsiy huquq va erkinliklar deganda shaxslarning faqat o‘zigagina tegishli bo‘lgan va hayoti davomida ajralmas bo‘lib hisoblangan huquq va erkinliklar tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo‘lim, yettinchi bobida inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bòlsam, biz yoshlarni bilim olishimiz, qiziqishimizga qarab kasb-hunar egallashimiz, malakali mutaxassis bòlib voyaga yetishimizda, bizni kuchli, bilimli, dono va baxtli bòlib yashashimizni ta'minlashda Konstitutsiya asosiy hujjat bòlib xizmat qilmoqda.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning "O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida"gi Farmoyishi. 04.01.2001. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bòyicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 07.02.2017. www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni. www.lex.uz